

## MA'MURIY SUD ISHLARIDA DALILLAR VA ISBOTLASH

**Raxmatullayeva Parizod**

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi.

**Yangiboyev Norquvvat Qulnazarovich**

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti Katta o'qituvchisi, Dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19946642>

***Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada ma'muriy sud ishlarini yuritishda dalillar va isbotlash tushunchasining huquqiy mohiyati, ularning turlari, isbotlash majburiyati hamda dalillarni baholash tartibi tahlil qilinadi. Shuningdek, dalillarni taqdim etish, ularni tekshirish va baholash jarayonida yuzaga keladigan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.*

***Kalit so'zlar:** dalillar, isbotlash, ma'muriy sud, yozma dalil, raqamli dalil, ashyoviy dalil, isbotlash majburiyati, dalillarni baholash, elektron ma'lumotlar.*

### **“Adolat haqiqatga tayanadi, haqiqat esa dalillar orqali namoyon bo'ladi.”**

**(Xalq so'zi)**

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda dalillar muhim ahamiyat kasb etadi. Dalillar– bu qonunda belgilangan tartibda olingan va ish uchun ahamiyatli bo'lgan faktlar haqidagi ma'lumotlar bo'lib, ular orqali sud nizoni to'g'ri hal qiladi.

Ushbu ma'lumotlar turli shakllarda namoyon bo'ladi: yozma hujjatlar, ashyoviy predmetlar, raqamli fayllar, ekspert xulosalari, guvoh ko'rsatmalari va taraflarning tushuntirishlari. Isbotlash esa sud tomonidan ishni mazmunan ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan holatlarni aniqlash jarayonidir.

Bu jarayon dalillarni yig'ish, tekshirish va baholashdan iborat. Isbotlash majburiyati odatda taraflarga yuklatiladi, ya'ni har bir shaxs o'z talab yoki e'tirozlarini asoslab berishi kerak.

Ma'muriy ishlar doirasida alohida jihat shundaki, davlat organlari va mansabdor shaxslar o'z qarorlarining qonuniyligini isbotlashi shart. Bu esa fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim hisoblanadi.

Shuningdek dalillar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

1. Yozma dalillar (hujjatlar, shartnomalar);
2. Ashyoviy dalillar (moddiy obyektlar);
3. Raqamli dalillar (audio, video, elektron fayllar);
4. Guvoh ko'rsatmalari va ekspert xulosalari. Sud faqat ishga aloqador, maqbul va ishonchli dalillarni qabul qiladi.

Qonunga xilof yo'l bilan olingan dalillardan foydalanish taqiqlanadi. Dalillarni baholashda sud ichki ishonchga asoslanadi va hech bir dalil oldindan belgilangan kuchga ega bo'lmaydi. Har bir dalil alohida va ularning yig'indisi umumiy holda tahlil qilinadi.

Ammo amaliyotda dalillar bilan bog'liq bir qator muammolar ham uchraydi: Ya'ni taraflarning dalillarni yashirishi yoki o'z vaqtida taqdim etmasligi yoki raqamli dalillarni tekshirishdagi texnik qiyinchiliklar, hamda dalillarning haqiqiylikni aniqlashdagi murakkabliklar va ayrim hollarda isbotlash majburiyatining noto'g'ri taqsimlanishi kelib chiqishi mumkin. Bu muammolar sud qarorlarining adolatli va asosli bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun esa quyidagi takliflarni berishimiz mumkin.

Birinchi dan dalillarni taqdim etish muddatlariga qat'iy rioya qilish mexanizmini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Shuningdek raqamli dalillar bilan ishlash uchun zamonaviy texnologiyalar va mutaxassislarini keng jalb etish bu muammolarga yechim bo'lishi mumkin. Bundan tashqari sudlar tomonidan dalillarni baholash bo'yicha yagona amaliyotni shakllantirish va taraflarning protsessual intizomini oshirish, ya'ni dalillarni yashirish yoki yo'q qilish uchun javobgarlikni kuchaytirish va sudlarda elektron hujjat aylanish tizimini rivojlantirish orqali biz bu muammolarga yechim topishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy sud ishlarida dalillar va isbotlash instituti sudlov jarayonining markaziy va hal qiluvchi elementlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan dalillar orqali sud ishning haqiqiy holatlarini aniqlaydi, taraflarning talab va e'tirozlariga huquqiy baho beradi hamda yakuniy qaror chiqaradi.

Shu jihatdan dalillar nafaqat protsessual vosita, balki adolatni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Isbotlash jarayoni esa faqatgina dalillarni taqdim etish bilan cheklanmaydi, balki ularni to'plash, har tomonlama tekshirish va xolis baholashni ham o'z ichiga oladi.

Ayniqsa, ma'muriy ishlar doirasida isbotlash majburiyatining davlat organlari zimmasiga yuklatilishi fuqarolar huquqlarini himoya qilishning muhim kafolati sifatida xizmat qiladi. Bu norma davlat organlarining o'z faoliyatida qonuniylik va ochiqlik prinsiplariga amal qilishini taqozo etadi. Zamonaviy rivojlanish sharoitida raqamli va elektron dalillarning ahamiyati tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Biroq bu holat yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda, xususan, bunday dalillarning haqiqiylikni aniqlash, ularni saqlash va sudda baholash masalalari yanada murakkablashmoqda. Shu sababli sud tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mutaxassislar salohiyatini oshirish hamda yagona amaliyotni shakllantirish zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, taraflarning protsessual majburiyatlarga rioya etishi, dalillarni yashirmasligi va o'z vaqtida taqdim etishi sud jarayonining samaradorligini oshiradi. Aks holda, dalillar bilan bog'liq protsessual buzilishlar ishning cho'zilib ketishiga yoki noto'g'ri qaror qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, dalillar va isbotlash institutini takomillashtirish, ayniqsa raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, sud amaliyotini bir xillashtirish va huquqiy madaniyatni oshirish orqali ma'muriy sudlovning samaradorligi va adolatliligini yanada mustahkamlash mumkin.

Bu esa o'z navbatida fuqarolar va davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarda ishonchni kuchaytiradi hamda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. Sud amaliyoti materiallari
4. Lex.uz